



“BARQAROR RIVOJLANISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDITNING HUDUDIY TENDENSIYALARI”

MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA

AXBOROT XATI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandi beshinchi xatboshisida belgilangan 2025-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risidagi topshirig‘ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida **2025 yil 16-17 may** kunlari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “**Barqaror rivojlanishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning hududiy tendensiyalari**” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.

Konferensiya o‘tkazilish joyi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Professorlar ko‘chasi 51uy

Konferensiya tili: o‘zbek, ingliz, rus.

Konferensiya ilmiy yo‘nalishlari:

- ❖ Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit siyosati
- ❖ Yashil buxgalteriya hisobi, audit va barqaror tabiat
- ❖ Buxgalteriya hisobining milliy standartlari
- ❖ Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
- ❖ Moliyaviy tahlil va strategik boshqaruv

Konferensiya ishida mamlakatimizning vazirlik va idoralari, ilmiy tadqiqot institutlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi muassasalarning professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, mustaqil izlanuvchilari va turli soha mutaxassislari hamda talabalar ishtirok etishlari mumkin. Konferensiya onlayn va offlayn formatlarida o‘tkaziladi. Konferensiya yakuni bo‘yicha ilmiy maqola va tezislari to‘plami nashr qilinadi va elektron shaklda tarqatiladi. Konferensiya materiallari **Google scholar** bazasida indekslanadi.

Rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

- ❖ Maqola nomi;
- ❖ Muallif ism-sharifi va otasining ismi, ish joyi, lavozimi, elektron pochta manzili bo‘lishi;
- ❖ Annotatsiya (100-120 ta so‘z), kalit so‘zlar (6-10 ta so‘z) o‘zbek, ingliz, rus tillarida bo‘lishi;
- ❖ Maqola matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 3 sm, chapdan 1,5 sm bo‘lishi;
- ❖ Maqola matni Microsoft Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o‘lcham, 1,15 intervalda, 3-7 betdan iborat bo‘lishi;
- ❖ Izoh (snoska) manbasi to‘liq berilishi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati tahlil materiallariga bog‘liqligi va tahlil raqamlanishi [1], [2], [3] shaklida bo‘lishi;
- ❖ Maqolalarni IMRAD tuzilmasiga qat’iy rioya qilgan holda yuborish tavsiya etiladi.
- ❖ Topshirilgan maqolalar **antiplagiat tizimida** tekshiriladi. Maqola matni kamida **75%** muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim va me’yordan past bo‘lganlari qabul qilinmaydi.

Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi tomonidan maqola va tezislar ko‘rib chiqiladi, yuqorida keltirilgan talablarga javob bermagan materiallar qabul qilinmaydi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun maqola va tezislar **2025-yilning 15-mayga** qadar qabul qilinadi.

Konferensiyada ishtirok etish uchun materiallarni quyidagi manzilga yuboring:

G‘afforov Ilhom

Telefon: +998953301777

E-mail: ilhomjongafforov2@gmail.com

Telegramda: @ilhom_gafforov

Har bir ilmiy maqola uchun tashkiliy badal - 150 000 so‘m.

Tashkiliy qo‘mita:

Z.H.Abdullayev

M.Sh.Mardonov

E.A.Rabbimov

O.Ergashev

X.X.Xikmatov

X.Ibayev

I.I.G‘afforov

B.A.Mirzayev

